



UO'K: 37.091.3:811.112:2

CHET TIL DARSALARIDA DIALOGIK NUTQ TURI VA POLILOGDAN FOYDALANISH  
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДИАЛОГА И ПОЛИЛОГА НА УРОКАХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА  
USE OF DIALOGUE AND POLYLOGUE IN FOREIGN LANGUAGE LESSONS

Merganova Nigora Mamadodilovna 

Farg'ona davlat universiteti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada chet tili darslarida og'zaki nutq shakllari monolog, dialog va polilogdan foydalanish to'g'risida so'z boradi. Maqolada dialog va monologik nutq turlari o'rtasidagi farqlar, ularni o'rgatishdagi qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish usullari bayon etiladi. Chet tilni mutaxassislik sifatida o'rganuvchi talabalarga til o'rgatishda dialogik nutq turlari - axborot almashish juftnutq, reja juftnutq, munozara juftnutqdan foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, maqolada talabalarda chet tilda bahs-munozara olib borish ko'nikmasini rivojlantirishda foydalaniladigan nutq turi - polilogning xususiyatlari haqida to'xtalib o'tilgan. Polilog talabalarning tanqidiy fikrlashini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, polilogik muloqotda kommunikant dialogdan farqli o'laroq nafaqat bir retseptientga, balki barcha tinglovchilarga ham qaratilgan nutqiy harakatni amalga oshiradi.

**Аннотация**

В данной статье идёт речь об использовании монологической, диалоговой и полилогической форм устной речи на занятиях иностранного языка. В статье описаны различия диалогического и монологического типов речи, трудности их обучения и пути их преодоления. Студентам, изучающим иностранный язык по специальности, рекомендуется использовать диалогические виды речи - речь информационного обмена, планирующую речь, дискуссионную речь. В статье также рассматриваются особенности полилога – вида речи, используемого для развития у учащихся умения вести дискуссию на иностранном языке. Полилог важен для расширения критического мышления учащихся, в отличие от диалога, при полилогическом общении речевой акт направлен не только на одного реципиента, но и на всех слушателей.

**Abstract**

This article is about the use of monologue, dialogue and polylogue forms of oral speech in foreign language classes. The article describes the differences between dialogic and monologue types of speech, the difficulties of learning them and ways to overcome them. Students studying a foreign language in their specialty are recommended to use dialogic types of speech - information exchange speech, planning speech, discussion speech. The article also discusses the features of polylogue - a type of speech used to develop students' ability to conduct a discussion in a foreign language. Polylogue is important for expanding the critical thinking of students, in contrast to communicative dialogue, with polylogue communication the speech act is directed not only at one recipient, but also at all listeners.

**Kalit so'zlar:** reja juftnutq, munozara juftnutq, polilog, yakkanutq, tanqidiy fikrlash, retseptient, kommunikant, tematik yaxlitlik, nutqning mazmundorligi, nutq malakalari.

**Ключевые слова:** план речи, дискуссионная речь, полилог, монолог, критическое мышление, получатель, коммуникатор, тематическая целостность, осмысленность речи, речевые навыки.

**Key words:** plan of speech, discussion speech, polylogue, monologue, critical thinking, receiver, communicator, thematic integrity, meaningfulness of speech, speech skills.

**KIRISH**

“Lingvodidaktikaga oid adabiyotlarda og'zaki nutq shaklan ikkiga ajratiladi: dialogik nutq (ikki yoki bir necha shaxs tomonidan bevosita aytiladigan fikr almashish) va monologik nutq (bir yoki bir guruh eshituvchilarga, ayrim hollarda so'zlovchining o'ziga qaratilgan nutqiy murojaat)” [1,12]. Dialog o'z mohiyatiga ko'ra teng huquqli suhbatdoshlarning o'zaro fikr almashinish jarayoni hisoblanadi. Demak, dialog ikki shaxsning bevosita muloqoti, ya'ni bir necha fikrlar zanjiridan iborat shaklda ro'yobga chiqadigan jarayondir. Suhbat sodir bo'lishi uchun suhbatdoshlar, ularning mavzui, maqsadi, nutq namunalari bilishi va qo'llay olishi, nutq vaziyati yaratilishi lozim.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Chet til darsida dialogning quyidagi turlarini o'rgatish tavsiya etiladi: axborot almashish maqsadidagi juftnutq; reja juftnutq (birga faoliyat ko'rsatishni mo'ljallaydigan juftnutq), munozara

## PEDAGOGIKA

juftnutq (fikr bayon etish bo'yicha juftnutq)" [2,245]. Nemis tilini mutaxassislik sifatida o'rganuvchi talabalarga ko'proq reja-juftnutq, munozara juftnutq va guruhnutq o'rgatiladi. Reja-juftnutq axborot almashish juftnutq turidan shaklan va mazmunan biroz murakkabligi bilan farq qilib, birga faoliyat ko'rsatishga mo'ljallangan bo'ladi. Mazkur nutq shaklini 1 va 2-bosqich talabalariga o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Chunki birinchi va ikkinchi kursda og'zaki nutq kompetentsiyasini takomillashtirish "Og'zaki nutq amaliyoti", "Til ko'nikmalari integratsiyasi", "Til aspektlari amaliyoti" kabi fanlarni o'qitishda amalga oshiriladi. Davlat ta'lim standartlarida ushbu fanlarni o'zlashtirishda talaba egallashi zarur bo'lgan quyidagi bilim va ko'nikmalar belgilab qo'yilgan:

- birinchi kurs davomida norasmiy va ikkinchi kurs davomida rasmiy ko'rinishdagi muhokamalarda o'z nuqtai nazarini va fikrini erkin bayon eta olish va boshqalarning fikrini so'rash;
- tanish yoki o'zini qiziqtirgan mavzularda soddaroq gaplar vositasida yuzma-yuz muloqotga erkin kirisha olish, muloqotni samarali davom ettirish va tugallash.

Bu bilim, ko'nikma va malakalarni takomillashtirishda nemis metodisti I.Kosterning "Modellsatz B1" [3,26] nomli o'quv qo'llanmasida berilgan quyidagi mashq va topshiriqlar yordam beradi:

**Teil 1 Gemeinsam etwas planen** Dauer: circa drei Minuten

*Am Ende des Schuljahres möchte deine Klasse eine Party organisieren.*

*Da ein Mitschüler die Klasse verlässt, wollt ihr ihm ein Abschiedsgeschenk machen.*

Sprich über die Punkte unten, mach Vorschläge und reagiere auf die Vorschläge deines Gesprächspartners/deiner Gesprächspartnerin.

Plant und entscheidet gemeinsam, was ihr tun möchtet.

**1.4-rasm. Reja juftnutq**

*Sizning guruhingiz o'quv yilining oxirida tadbir uyushtirmoqchi. Bu yil bir talaba guruhni tark etadi, shu bois guruh unga sovg'a tayyorlamoqchi. Sizning vazifangiz tadbirni tashkillash va sovg'a tanlash rejasini tuzishdir. Bunda sizga quyida berilgan savollar yordam beradi.*

*Wann? Wo? Wen noch einladen? Essen, Getränke? Geschenk? (Қачон? Қаерда? Кимларни таклиф қилиш лозим? Езуликлар ва ичимликларни олиб келиш ва совға масаласи).*

Munozara juftnutq esa fikrlarni dalillash, ularga tanqidiy yondashish, suhbatdoshni ishontirish, isbotlash kabi faoliyatlar bilan bog'liq bo'ladi. Munozarada so'zlovchining diqqati nutqning mazmundorligi va mantiqiyiligiga qaratiladi va nutq malakalari takomillashgan darajaga yetkaziladi. Shuning uchun bu nutq shaklini 3 va 4-bosqich talabalariga o'rgatish tavsiya etiladi. Ushbu juftnutq turi uchun ham alohida til materiali tanlanishi lozim.

*Masalan, Qanday omillar yordamida tushunmovchiliklar ijobiy hal qilinadi? Qanday omillar sabab janjal salbiy yakunlanadi? Omillar va sabablarni guruhingizda muhokama qiling.*

Til materialini tanlashda nemis tilini mutaxassislik sifatida o'rganuvchi talabalarga Germaniyada nashr etilgan aynan nemis tili mutaxassislik fani uchun mo'ljallangan darsliklardan foydalanish maqsadga muvofiq. Birinchi va ikkinchi bosqich uchun "Til ko'nikmalari integratsiyasi" hamda "Til aspektlari amaliyoti" fanlarining namunaviy fan dasturida ham "Aspekte B1", "Sicher B1", "Aspekte B2", "Sicher B2" kabi xorijiy adabiyotlar tavsiya etiladi.

**NATIJA VA MUHOKAMA**

Juftnutq situativ hisoblansa, yakkanutq mavzu yuzasidan gapirish demakdir. Gapirishni o'rgatish faqat gapiruvchi va tinglovchi rollarini almashuvidan iborat bo'lmashligi lozim. Kundalik suhbat bu ko'rgan-kechirgan voqealar haqida hikoya, hodisa haqida xabar berish, ma'lum predmet yoki rasmni tasvirlash, biror matn haqida asosli fikr bildirishdan tashkil topadi. Yakkanutq, ya'ni monolog fikrni og'zaki bayon etish, o'qilgan yoki tinglangan matn mazmunini aytib berish, hikoya qilish, og'zaki muloqot yuritish kabi faoliyatlardan tashkil topadi. "Monolog shaxsiy til tajribasini ishga solish, fikr va mulohazalarni izchil bayon qilish, aytilayotgan axborotni yaxlit holga keltirish, nutqiy vaziyat bo'yicha o'z munosabatini bildirish kabilarni o'z ichiga oladi" [4,54]. O'.Hoshimov va I.Yoqubov "Ingliz tili o'qitish metodikasi" nomli darsligida dialog va monolog haqida quyidagi fikrlarni bildirganlar: "Og'zaki nutqda kishi biror niyat maqsadni ko'zlaydi, so'ng uni til shakliga ko'chiradi. Psixologiya yana bu nutqni tez (reaktiv) va kommunikativ nutqqa ajratadi. Monologda

talaba nutqni rejali ravishda o'zi tuzsa, so'ng sodir qilsa, dialogda ancha murakkab nutq ikkinchi so'zlovchiga moslashishni talab qiladi, monolog erkin sodir bo'lsa, dialog nutq esa ikkinchi kimsaga qaratilgandir, erkin emasdir" [5,23].

Yuqoridagi fikrga qo'shilgan holda shuni aytish kerakki, dialog monologdan ko'ra qisqaroq va osonroq tuyulsada, chet tilda muloqot qilish jarayonida talabadan ikkinchi shaxsning savolini to'g'ri tushunish, uning nimani nazarda tutayotganligini anglash, unga tez va to'g'ri javob qaytarish talab etiladi. Taniqli nemis olimi G.Desselman o'zining "Chet elliklar uchun nemis tili darslarida gapirish malakasini rivojlantirish" nomli risolasida monolog nutq turini o'stirish masalasiga katta ahamiyat berish lozimligini tavsiya qiladi. Uning fikricha, "ko'p jumlati yakkanutqda so'zlovchi qisqa savol-javob luqmalarini tuzishga nisbatan ko'proq bir tizimga solish masalasiga ro'baro bo'ladi" [6,159].

Shuningdek, polilog (guruhnutq), ya'ni ikki va undan ortiq shaxslar ishtirokidagi nutq ham chet tilni o'rgatishda alohida o'rin tutadi. Bu nutq turi asosan yuqori kurs talabalariga o'rgatiladi, chunki polilog juftnutqning kengaytirilgan shakli bo'lib, talabalarda chet tilda ma'lum mavzular yuzasidan bahs-munozara olib borish, tanqidiy fikrlarni bayon etish va o'z fikrini himoya qilish kabi malakalarni talab etadi. Polilogik nutq muammolari T.G.Vinokur, K.K.Faizova, T.V.Popova, U.Avileyt, S.L.Kruglova, L.L.Chitaxova, G.E.Ayrapetov, N.N.Zilberman kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Olib borilgan tadqiqotlar dialog va polilogni monologdan ajratib turuvchi umumiy belgilar bilan bir qatorda ular o'rtasida jiddiy farqlar ham mavjudligini ko'rsatdi.

Rus olimi T.G.Vinokurning ta'kidlashicha, tilning kommunikativ xususiyatlarini o'rganishda "dialog" atamasiga qo'shimcha sifatida paydo bo'lgan "polilog" atamasi mazmunan u bilan qisman mos keladi, chunki nutqning har ikkala shaklida ham kommunikantlar va retseptentlar ro'ida o'zgarishlar mavjud. Xorij tilshunos olimlari G.Klark va T.Karlsonning "Tinglovchilar va nutq akti" asari polilogni muloqot va muloqotning to'laqonli shakli sifatida ajratib ko'rsatishga xizmat qildi. Olimlar ushbu asarida polilog dialogdan farq qiladi, deya ta'kidlaydi. "Polilogda ma'ruzachi bir vaqtning o'zida barcha ishtirokchilarga murojaat qiladi". G.Klark va T.Karlson fikriga qo'shilgan holda shuni aytish kerakki, polilogik muloqotda kommunikant dialogdan farqli o'laroq nafaqat bir retseptentga, balki barcha tinglovchilarga ham qaratilgan nutqiy harakatni amalga oshiradi, shuning uchun nutqning bu turi murakkabligi bilan ajralib turadi. Rus olimasi T.V.Popova esa polilogni nutqning maksimal kommunikativ-interaktiv birligi deb hisoblaydi. Uning fikricha, polilog semantik-sintaktik izchillik va tematik yaxlitlikka ega, u global nutq hodisasi vazifasini bajaradi va bu nutq turida kamida uch kishi ishtirok etadi. Polilog mavzusida tadqiqot olib borgan rus olimi G.E.Ayrapetov polilogik nutqning strukturaviy elementlarini: muloqotga kirishish, nutqiy aloqani saqlab turish, muloqotdan chiqish belgilarini ilmiy-nazariy asoslaydi [7,17]. Uning fikriga ko'ra, polilogik nutqdagi o'zaro ta'sirlar dialogga qaraganda ancha kutilmagan, moslashuvchan va o'zgaruvchandir .

### XULOSA

Yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning polilog nutq shakliga oid fikrlariga tayangan holda, biz polilogni dialogdan o'ziga hos xususiyatlari bilan farq qilishini, polilog ishtirokchilar sonining ko'pligi sababli monolog va dialogga qaraganda murakkab muloqot shakli ekanligini ta'kidlab o'tmoqchimiz. Chunki muloqot jarayonida kommunikant bir suhbatdoshga emas, balki barcha tinglovchilarga e'tibor qaratishga majbur bo'ladi. Shuning uchun nutqning bu shakli mavzularning rivojlanishi bilan ajralib turadi va unda gapirish huquqi uchun kurash boradi. Talabalar muayyan voqea yoki hodisa haqida o'z fikrlarini bayon qila oladigan bo'lishlari talab etiladi. Qaror qilish va asoslash tarzida fikr bayon qilishni o'rgatish suhbatdoshning fikrini ma'qullash, unga qo'shilish yoki rad etishni mashq qilishga o'rgatadi. Agar suhbat chog'ida turli fikrlar, takliflar, nuqtai nazarlar bayon qilinsa va har bir ishtirokchi o'z fikrini asoslansa, o'zgalar fikrini diqqat bilan tinglab muloqot odobini saqlagan holda unga qarshi chiqsa yoki qo'shilsa, munozara mazmunli hamda samarali kechadi. Demak, o'zgalarning fikrini tinglab o'z fikrini og'zaki bayon qilish jarayonida og'zaki nutqning lingvistik xususiyatlarini bilish, uni hisobga olish ta'limning samaradorligini belgilashda muhim o'rin tutadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Насирова У.К. Касб-хунар коллежлари ўқувчиларининг инглиз тилини ўқитишдаги нутқ компетенциясини ривожлантириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020. 12-б.
2. Жалолов Ж.Ж. Чет тил ўқитиш методикаси. –Тошкент: Ўқитувчи. 2012. 245-б.

PEDAGOGIKA

---

3. Köster I. Modellsatz B1./ Materialien zur Prüfung Goethe Zertifikat B1. –München, 2016. S. 26.
4. Мисиров С.А. Қасб-ҳунар коллежларида инглиз тили ўқитишнинг лингводидактик асослари: Педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент, 2007. – 54 б.
5. Хошимов Ў.Ҳ., Ёқубов И.Я. Инглиз тили ўқитиш методикаси. – Тошкент: Шарқ, 2003. – 23 б.
6. Сайдалиев С.С. Тиллар ўқитиш методикаси ва таълим технологиялари (олмон тили мисолида). Наманган, 2019. 159-бет.
7. Айрапетов Г.Э. Интеракциональные особенности полилогического дискурса: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Пятигорск, 2006. – 17 с.